



## SHAHAR MARKAZLARIDA AVTOTRANSPORT VOSITALARINI SAQLASH USULLARI

*Abdullayev Shavkatbek Dadajon o‘g‘li*  
*Andijon mashinasozlik instituti stajor-o‘qituvchisi*

**Annotatsiya:** Avto saqlash joylari – avtomobilarni yopiq yoki ochiq holda saqlash, ko‘p hollarda kichik hajmdagi TXK, ayrim hollarda ko‘p iste’moldagi ehtiyyot qismlar bilan ta’minlash bilan shug‘ullanuvchi sub’ekt.

**Kalit sozlar:** Rampali saqlash joylari, To‘liq mexanizatsiyalashgan, Yarim mexanizatsiyalashgan.

Avtotransport vositalari texnik holatining o‘zgarishi ularning qanday saqlanishiga ham bog‘liqdir. Avtotransport vositalarini saqlash, ularning saqlanish muddatiga qarab qisqa va uzoq saqlashga ajratiladi[1].

Saqlash paytida avtotransport vositalarining texnik holati yomonlashmasligi, ishgacha to‘liq (butun) saqlanishi, yong‘in chiqish xavfidan xoli bo‘lishi hamda saqlash joylariga kirishi va chiqishi qulay bo‘lishi zarur.

Avtomobilarni saqlashni tashkil etishda quyidagi joylar qo‘llaniladi:

- Avtomobil saqlash joyi – avtomobilni saqlash (to‘xtab turish) uchun mo‘ljallangan bino, inshoot (bino, inshootning bir qismi) yoki maxsus ochiq maydoncha;

- Yopiq turdagи yer usti avtomobil saqlash joyi – yopiq inshoot ichidagi avtomobillar turar joyi;

- Ochiq turdagи saqlash joy – tashqi to‘sqliari bo‘lmagan avtomobil turar joyi. Ikki tomoni ochiq bo‘lgan inshootlar ham, agar tomonlarning ochiq joyi 50% kam bo‘lmasa, ushbu turga qo‘shiladi [2];

Avtomobillar ko‘p qavatlari binolarida saqlanganda, binolar qavatlari bo‘yicha harakatlanish usuliga qarab rampali va mexanizatsiyalashgan turlarga bo‘linadi. Amalda rampali saqlash binolari keng tarqalgan [3].

- Rampali saqlash joylari – ko‘p qavatlari binolar bo‘lib, uning qavatlari avtomobillar o‘z harakati bilan ko‘tarilish (tushish) imkoniyatini yaratuvchi doimiy ko‘tariladigan (tushadigan) rampa (yo‘lak)lardan foydalaniladigan saqlash joylari;

- Mexanizatsiyalashgan avtomobil saqlash joyi – avtomobilni turar joylariga (yacheyka)ga joylashtirish maxsus mexanik qurilmalar yordamida (haydovchi ishtirokisiz) amalga oshiriladigan turar joy [4].



Avtomobil saqlash joyi yer osti va yer usti qavatlardan tashkil topgan, boshqa binolarga yondoshgan yoki yoniga qurilgan, yer sathidan past yoki baland, shu jumladan, binolarning tagida, yer ostida, yerto‘la, sokol yoki pastki yer usti qavatlarida bo‘lishi hamda maxsus jihozlangan yer sathidagi ochiq maydonchalarda joylashishi mumkin. Yer osti avtomobil saqlash joyini ko‘cha, maydon, sayilgoh hududi tagiga ham qurish ruxsat etiladi [5].

Siqilgan tabiiy gaz va suyultirilgan neft gazlarida ishlovchi dvigatelli avtomobillar uchun saqlash joyini boshqa binolarga ulash hamda yer sathidan pastga joylashtirish ruxsat etilmaydi [6].

Binolarda joylashgan avtotransport vositalarini saqlash joylari sharoitga qarab isitiladigan va isitilmaydigan bo‘lishi mumkin [7].

Avtomobillarni saqlash uchun mo‘ljallangan binolar bir va ko‘p qavatli bo‘lishi mumkin. Bir qavatli binolar sodda va kam xarajatli bo‘lganligi uchun keng tarqalgan


Mexanizatsiyalashgan saqlash binolari avtomobillarning tik va gorizontal harakatlanishining mexanizatsiyalanish darajasiga qarab quyidagi ikki guruhga bo‘linadi:

1. To‘liq mexanizatsiyalashgan – avtomobillarning qavatlar oralig‘ida tik yurishi va qavat ichida gorizontal harakati mexanizatsiyalashgan [8].

2. Yarim mexanizatsiyalashgan – avtomobillarning faqat qavatlar oralig‘idagi ko‘tarilishi va tushishi mexanizatsiyalashgan, qavat ichida esa o‘zi harakatlanadi.

Mexanizatsiyalashtirilgan va avtomatlashtirilgan saqlash binolarida avtomobillarni joylashtirish va egasiga topshirish lift-ko‘targich (1-rasm) va transport aravachalari (platforma) yordamida amalga oshiriladi [9].

a.



b.



1-rasm. To‘liq mexanizatsiyalashtirilgan saqlash joyi

a. Umumiy ko‘rinish., b. Lift-ko‘targich



Katta shaharlarda kichik maydonlardan samarali foydalanish maqsadida mexanizatsiyalashtirilgan ko‘p qavatli ochiq saqlash joylari ham joriy etilmoqda (2-rasm). Bunday yengil konstruksiyalar mavjud ochiq avtomobil saqlash joylariga o‘rnatilsa, uning sig‘imini bir necha barobarga oshirib beradi. Bu tizimlar ancha arzon hamda uni doimiy va vaqtincha variantlarda ham qo‘llasa bo‘ladi [10].



a



b

2-rasm. Yengil konstruksiyali avtomobilni ochiq holda saqlash joylari. a- yer sathidan boshlanadigan 5 qavatli saqlash joyi; b- ko‘tarilib- tushuriladigan 3 qavatli saqlash joyi.

Bunday kompleks mexanizatsiyalashtirish usullari avtomobillar orasidagi masofalarni hamda qavatlar balandligini kamaytirish hisobiga bino maydoni va hajmini, ya’ni bir saqlash joyiga to‘g‘ri keladigan maydonni anchagina tejash imkonini beradi [11].

Lekin ko‘pgina mamlakatlarda, shu jumladan, bizning mamlakatimizda ham hozirga qadar aholi tasarrufidagi avtomobillar ko‘p qavatli uylar mavzelerida temir garajlarda saqlanib kelingan. Bu esa, yer maydonining ortiqcha sarfiga, mavze manzarasini buzilishiga olib keladi. Shu sababli shaharlarda ko‘p qavatli avtomobil saqlash joylarini tashkil etish dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda [12].

### Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Dostonbek Z., Bunyodbek M. Examination of Vehicles Carrying Fast-Breaking Cargo //Eurasian Research Bulletin. – 2022. – Т. 14. – С. 25-29.



2.Zokirov D., TO'YINGAN G., QUVURO'TKAZGICHLARINI U. H. SAI. 2022.№ A6 //URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/trassanining-suvga-to-yingan-uchastkalarida-yotqiziladigan-yer-osti-quvuro-tkazgichlarini-hisoblash> (дата обращения: 14.10. 2022).

3.Zokirov D., Ismoilova G. TRASSANING SUVGA TO'YINGAN UCHASTKALARIDA YOTQIZILADIGAN YER OSTI QUVURO 'TKAZGICHLARINI HISOBLASH //Science and innovation. – 2022. – Т. 1. – №. A6. – С. 75-83.

4.Zokirov D., Ismoilova G. CALCULATION OF UNDERGROUND PIPES TO BE HEATED ON WATER-FUSED ROAD SECTIONS //Science and Innovation. – 2022. – Т. 1. – №. 6. – С. 75-83.

5.Zokirov D., TO'YINGAN G. I. T. S., QUVURO'TKAZGICHLARINI U. Y. Y. E. R. O. HISOBLASH//SAI. 2022.№ A6 //URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/trassanining-suvga-to-yingan-uchastkalarida-yotqiziladigan-yer-osti-quvuro-tkazgichlarini-hisoblash> (дата обращения: 14.10. 2022).

6.Dostonbek, Zokirov, and Mamasoliyev Bunyodbek. "Examination of Vehicles Carrying Fast-Breaking Cargo." Eurasian Research Bulletin 14 (2022): 25-29.

7.Sermuxamedov U. Z., Zokirov F. Z. APPLICATION OF MODERN, EFFECTIVE MATERIALS IN RAIL ROAD REINFORCED BRIDGE ELEMENTS //Journal of Tashkent Institute of Railway Engineers. – 2019. – Т. 15. – №. 3. – С. 8-13.

8.Sermuxamedov U. Z., Zokirov F. Z. APPLICATION OF MODERN, EFFECTIVE MATERIALS IN RAIL ROAD REINFORCED BRIDGE ELEMENTS //Journal of Tashkent Institute of Railway Engineers. – 2019. – Т. 15. – №. 3. – С. 8-13.

9.Dostonbek Z., Bunyodbek M. Examination of Vehicles Carrying Fast-Breaking Cargo //Eurasian Research Bulletin. – 2022. – Т. 14. – С. 25-29.

10. Xalilbek o'g'li X. E., Bobirxon o'g'li U. B., Xalimjonov E. X. LOGISTIK KORXONALAR FAOLIYATINI O'RGANISH VA ULARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH JARYONLARI //Лучшие интеллектуальные исследования. – 2023. – Т. 8. – №. 4. – С. 89-92.

11. Xalilbek o'g'li X. E., G'anijon o'g'li V. J., Xalimjonov E. X. CHORRAHALARDA TRANSPORT VOSITALARINING TIRBANDLIGINI O'RGANISH VA TAHLIL QILISH //Лучшие интеллектуальные исследования. – 2023. – Т. 8. – №. 4. – С. 99-104.

12. Xalilbek o'g'li X.E. et al. SHAHAR MARKAZLARIDAGI CHORRAHALARDA YO'L TRANSPORT HODISALARINI VUJUDGA KELISHIDA SVETOFORLARNING O'RNI //Лучшие интеллектуальные исследования. – 2023. – Т. 8. – №. 4. – С. 93-98.